

**ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUV USLUBI – ELEKTRON
HUKUMAT**

Mamatqulov Sardor Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy davlat boshqaruv uslubi – elektron hukumat, uning qo'llanilish asoslari, xorijiy mamalatlarda elektron hukumatning rivojlanganlik darajasi, elektron hukumat tizimining afzalliklari, elektron hukumat turlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik muammolar, JSST, ekologik siyosat, G2C, G2B, G2G, yashil belbog'.

I. Elektron hukumat nima?

“Elektron hukumat” tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo'lgan, lekin amaliyotga so'nggi yillardan boshlab tadbiiq qilina boshlandi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSH va Angliya, hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Qatar, BAA va h.k.) shug'ullandilar. Elektron hukumatning turlari:

- 1) G2G (Government to Government) – Davlat–davlatga;
- 2) G2C (Government to Citizens) – Davlat fuqarolarga;
- 3) G2F (Government to Foreigners) – Davlat xorijliklarga;
- 4) G2B (Government to Business) – Davlat biznesga.

Ba'zi davlatlarning elektron hukumat tizimi shuningdek quyidagi tarmoqlarga ham ega: G2S (Government to Science) – Davlat–Ilm-fanga; G2N (Government to third sector) – Davlat-uchinchi sektor. Elektron hukumat tizimining boshlang'ich ma'nosi: bu davlat boshqaruv organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali yangi ko'nikmalarni joriy qilish va tashkiliy o'zgartirishlar asosida davlat xizmatlari va demokratik jarayonlarni, davlat siyosiy institutlariga yordam berishni ta'minlashni takomillashtirishga qaratilgan tizimdir.

Elektron hukumatning yaratilishi hujjatlarning qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar echimi to'liq amalga oshirilgan taqsimlangan umumdavlat jamiyat boshqaruvi tizimi yaratilishini taqozo qiladi. Axborot–kommunikatsiya texnologiyalari tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan sharoitda barcha sohalarda davlat organlarining elektron ko'rinishdagi faoliyatlariga fuqarolar hamda har qanday mulkchilik shakllariga asoslangan tashkilot va muassasalar tomonidan ehtiyoj mavjuddir. Bugungi kunga kelib butun dunyoda tan olingan yagona

elektron hukumat yaratish konsepsiyasi mavjud emas. Elektron hukumat tizimining joriy etilishidan maqsad: aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish samarasini ko'tarish; fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish; insonlarning malakasi va texnologik xabardorligi darajasini oshirish; barcha saylovchilarning mamlakatni boshqarish jarayonlaridagi ishtirok darajasini oshirish va geografik joylashuv hamda ish vaqti omillari ta'sirini kamaytirishdan iboratdir. Buning natijasida davlat xizmatlarining samarali va kam harajatli boshqaruv usuli joriy etiladi, jamiyat va hukumat munosabatlarini tubdan yangi bosqichga olib chiqiladi va fuqarolik jamiyati rivojlantirilib, hukumatning xalq oldidagi javobgarlik darajasi oshiriladi.

Elektron hukumatning yuzaga kelishi natijasida fuqarolarga xizmat va axborotlar ular istagan joyda va vaqtda insonlarga qulay shaklda taqdim etiladi. Muvafaqqiyatli amalga oshirilgan davlat xizmatlari ochiq, hammabop, oddiy foydalanuvchiga qulay, integrallashgan hamda davlat va xususiy sektorlarning hamkorligi tamoyiliga asoslangan bo'ladi, ular nafaqat Internet tarmog'iga ulangan insonlarni, balki shu kungacha tarmoqqa kirmagan va u bilan tanish bo'lmaganlarni ham jalb qila oladi. Aholiga xizmat ko'rsatish yo'llarini yuqori darajada oshirish davlat manfaatlari maqsadlari qatoriga kiradi va bugungi kunda paydo bo'layotgan elektron hukumatning yaratilishi jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarning tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Oxirgi vaqtlarda elektron hukumat atamasi odatiy hayotda ko'plab qo'llanilmoqda. Biroq hozircha ko'pchilik ushbu atamaning to'liq ma'nosini bilishmaydi. E – government konsepsiyasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda “elektron hukumat” ma'nosini beradi. Atama davlat tuzilmasiga davlat apparatining faoliyati samaradorligini oshirish va ochiqligini ko'rsatish maqsadida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini kiritish g'oyasi G'arbda paydo bo'lgan. Bu konsepsiya g'oyasi xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan hukumat ma'nosida, ya'ni, o'z fuqarolariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot g'oyasi bilan ajralmas bo'lgan.

Bu vazifalarni yechish uchun butun dunyoda maqsadli dasturiy vositalar yaratila boshlandi: E-Europe, E-Austria, Indonesia National E-Strategy. Elektron hukumat davlat xizmatlari va fuqarolar o'rtasida aloqalarni rivojlantirish va o'zaro munosabatni yaxshilash uchun birinchi navbatda Internet tarmog'idan va yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi.

“Elektron hukumat” yoki elektron boshqarish davlat boshqaruv organlari axborot – kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)dan foydalanish sabablari: Elektron hukumat (ingl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyati boshqa tarmoqlari va davlat amaldorlariga axborot taqdim etish hamda avvaldan shakllangan davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'lib, bunda davlat va fuqaro o'rtasidagi shaxsiy aloqa minimallashtirilgan bo'ladi va axborot texnologiyalaridan maksimal darajada

foydalaniladi. Dunyoning taraqqiy topgan mamlakatlarida «Elektron hukumat» milliy tizimini faol tatbiq qilinmoqda. Bu tizim davlat tuzilmalarini boshqarishni, davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlash orqali biznes-jarayonlarni samarali rivojlantirishni ta'minlabgina qolmay, fuqarolarga davlat xizmatlarini internet orqali hammabop interaktiv shaklda taqdim etish imkonini ham yaratadi.

Mamlakatimizda ham bir necha yillardan buyon, maqsadli ravishda interaktiv davlat xizmatlarini aholi va yuridik shaxslarga davlat organlari veb-saytlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali orqali taqdim etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda. Elektron hukumat atamasi ilk bor mamlakatning 2012-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan 2013-yil 18-yanvardagi Hukumat majlisida Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatda «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish Konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqish muhimligini qayd etib o'tgandi. Davlat organlari rahbarlari va mutaxassislaridan tuzilgan maxsus ishchi guruhi tomonidan mazkur yo'nalishda dunyo yetakchisi bo'lmish Korea Respublikasi va boshqa xorijiy mamlakatlarning «elektron hukumat» borasidagi ilg'or tajribalarini inobatga olinib, «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish bo'yicha Konsepsiya va Kompleks dasturni, shuningdek, 2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish Kompleks dasturini ishlab chiqish amalga oshirildi. «Elektron hukumat» tizimi joriy etilishi natijasida to'liq tranzaksiyalangan xizmatlarga o'tilishi kutilmoqda, bu esa, aholi va biznes vakillarining davlat xizmatidan foydalanishda turli instansiyalarga qatnashni va davlat xizmatchilari bilan bevosita muloqotda bo'lishni istisno etadi. Bu, o'z navbatida, aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratishga va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, «Elektron hukumat»ning samarali unsurlari sifatida, 20 dan oshiq loyihalar amalga oshirildi. Ular sirasida:

Gov.uz (<https://www.gov.uz/uz>) O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali, u tashkilotlar, shuningdek, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar o'rtasidagi elektron-axborot munosabatlari infratuzilmasining tizim tashkil etuvchi unsuri sanaladi. Har qanday fuqaro yoki korxonalar, tashkilot, muassasa vakili bu yerdan O'zbekiston davlat hokimiyatining barcha unsurlari haqida to'liq ma'lumot olishi, shuningdek, bevosita gov.uz (<https://www.gov.uz/uz>) portali orqali u yoki bu hokimiyat organiga elektron shaklda rasmiy so'rov yuborishi mumkin. Bu portalda, shuningdek, Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari to'liq restri chop etilgan.

II. O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanish evolyutsiyasi.

O'zbekistonda elektron hukumat tizimini yaratish bazisining me'yoriy-huquqiy asos — O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida» va «Elektron hukumat to'g'risida»gi (2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan) qonunlari, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda. Unga ko‘ra, Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta‘minlash, ularning mas‘uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub‘ektlari bilan axborot almashishni ta‘minlashning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;

- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;

- o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma‘lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;

- aholi va tadbirkorlik sub‘ektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma‘lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

- tadbirkorlik sub‘ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;

- tadbirkorlik sub‘ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarini amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

- naqd bo‘lmagan elektron to‘lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Elektron hukumatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;

- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;

- «bir darcha» prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish;

- davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;

- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;
- elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash.

Davlat organlarining elektron hukumat sohasidagi faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq ochiq va shaffof tarzda amalga oshiriladi. Ariza beruvchilarga elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi axborot ommabop va ochiqdir hamda u elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi. Elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari ariza beruvchi so'rovining ko'rib chiqilishi holati va xizmatlar ko'rsatilishi natijalari to'g'risidagi axborotni tegishli xabarlarini elektron shaklda yuborish yo'li bilan uning talabiga ko'ra taqdim etadi.

Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi

O'zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirishdagi yana bir muhimqadamlardan biri bu - "Raqamli hukumat" platformasi bo'ldi. "Raqamli hukumat" tizimi doirasida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali va shaffof mexanizmlarini yaratuvchi, shuningdek, ushbu sohadagi loyihalar, loyiha va texnik hujjatlarni sifatli ekspertizadan o'tkazishni ta'minlovchi tashkilotdir.

Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PP-4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va Raqamli hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25 iyundagi 409-sonli "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlarning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari asosida O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida tashkil etildi.

Markaz "Raqamli hukumat" tizimini va "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturini (keyingi o'rinlarda - dastur) rivojlantirish doirasida raqamli iqtisodiyot va "Raqamli hukumat" tizimini takomillashtirish sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi, xususan:

- *raqamli hukumatni rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash;*
- *davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;*
- *davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomining yagona idoralararo elektron tizimini joriy etish;*
- *raqamli hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bosqichlarini muvofiqlashtirish.*

Elektron hukumat tizimi joriy etilgandan buyon quyidagi yirik loyihalar amalga oshirib kelinmoqda:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) (<https://my.gov.uz/>);

Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz) (<http://data.gov.uz/>);

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz) (<https://regulation.gov.uz/uz/>);

“Litsenziya” axborot tizimlari kompleksi (license.gov.uz) ([https://license.gov.uz/index.php?lang=uz](https://license.gov.uz/index.php?lang=uz;));

“Yagona darcha” markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizim (birdarcha.uz) (<http://birdarcha.uz/?lang=uz>).

Bundan tashqari «e-kommunal.uz (<http://ek.uz/ru/>)» portali – kommunal xo'jalik sohasidagi umumiy axborot infratuzilmasi bo'lib, aholi, nazorat organlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari, shuningdek, kommunal xizmatlar o'rtasida axborot almashinuvini soddalashtiradi. Ushbu portalda qulay shaklda O'zbekiston uy-joy va kommunal xo'jalikka oid barcha masalalar bo'yicha ma'lumotlar joylashtirilgan. Har bir xohlovchi portalda kommunal xo'jalik borasidagi u yoki bu muammo haqida axborot, fotosurat joylashtirish mumkin, bu muammolar davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan o'rganib chiqiladi. Statistika, soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarni tadbirkorlik subyektlaridan elektron ko'rinishda yig'ish va qayta ishlash tizimi (stat.uz, soliq.uz). Davlat soliq qo'mitasi saytida istalgan soliq to'lovchi, ham yuridik, ham jismoniy shaxs maslahat olish, elektron ko'rinishda soliq hisoboti yoki daromadlar haqida deklaratsiya topshirish yoki o'z STIRini tasdiqlash kabi qator xizmatlardan foydalanishi mumkin. Davlat statistika qo'mitasi sayti orqali har bir tadbirkorlik subyekti statistik hisobotni elektron ko'rinishda topshirishi mumkin. 25 mingdan ziyod me'yoriy hujjatlarni erkin foydalanish uchun yig'gan O'zbekiston Milliy qonunchilik bazasi (lex.uz (<https://lex.uz/>)). Lex.uz (<https://lex.uz/>) milliy tizimining asosiy maqsadi aholining huquqiy madaniyatini yuridik va jismoniy shaxslarning me'yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalanishini ta'minlash orqali yuksaltirish, aholini huquqiy axborot bilan ta'minlashni takomillashtirishdan iborat. Elektr energiya iste'molchilarining har biri uchun o'z shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanishini ta'minlovchi elektrenergiya iste'molchilari shaxsiy kabinetlari (uzbekenergo.uz). Chet el fuqarolarining O'zbekistonga viza rasmiylashtirishlari uchun onlayn-so'rovnoma (mfa.uz). Tizim O'zbekiston tashqi ishlar vazirligi veb-saytining bir qismi bo'lib, hozirda o'zbek, ingliz va rus tillarida ishlamoqda Faoliyatning litsenziyalanadigan turlari va ruxsat berish taomillari ro'yxati, litsenziya, ruxsatnoma va boshqalarni olish uchun talab qilinadigan hujjatlar haqida axborot olish imkonini beruvchi umumiy litsenziyat portali (license.uz). O'zbekistonda litsenziyalanadigan faoliyat turlari ro'yxati muntazam qisqarmoqda va ularni olish taomili soddalashmoqda. Ushbu loyiha barcha axborotni olish va zarur litsenziyalarni olishdagi qog'ozbozlik darajasini qamaytirish imkonini beradi.

III. Xulosa

Internet, shaxsiy kompyuterlar va mobil telefonlar bizning hayotimizda inqilob qildi. Bu inqilob elektron hukumat orqali hukumatlarga ham ta'sir ko'rsatadi, ayni paytda butun dunyo hukumatlari elektron hukumatning ahamiyati va afzalliklarini tan olishadi va fuqarolarga xizmatlarini optimallashtirish uchun tegishli yechimlarni izlaydilar. Jahon banki (2012) elektron hukumatni odamlar, biznes va boshqa barcha davlat manfaatdor tomonlari o'rtasida axborotni o'zgartirish uchun mas'ul bo'lgan davlat idoralari tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanish sifatida belgilaydi. Elektron hukumat keng ko'lamli maqsadlarga ega, jumladan, odamlarga davlat xizmatlarini yaxshiroq yetkazib berish, biznes va sanoat hamkorligini kengaytirish, axborotga kirish orqali fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirish yoki samaraliroq boshqaruv. Elektron hukumatning afzalliklari kamroq korruptsiya, yuqori shaffoflik va yuqori qulaylik, daromadlarni rivojlantirish va shuningdek, xarajatlarni kamaytirish bo'lishi mumkin.

Elektron hukumatning afzalliklari. Elektron hukumatning yakuniy maqsadi fuqarolarga samarali va tejamkor davlat xizmatlarini taqdim etishdan iborat. Elektron hukumat, shuningdek, hukumatning shaffofligini ta'minlashi mumkin, chunki u jamoatchilikni hukumat nima ustida ishlayotgani va amalga oshirilayotgan siyosat haqida xabardor qilish imkonini beradi. Elektron hukumatni joriy qilishda qog'ozga asoslangan tizimni almashtirish va optimallashtirish asosiy foyda bo'ladi. Bu qog'oz sarfini kamaytirish evaziga ko'p vaqt, pul va atrof-muhitni tejash imkonini beradi. Elektron hukumatning joriy etilishi hukumat va biznes sektorlari o'rtasidagi aloqani yaxshilashga ham yordam berishi mumkin. Masalan, elektron davlat xizmatlarining sho'ba korxonasi sifatida elektron xaridlar G2G va B2B o'rtasidagi aloqani osonlashtirishi mumkin, bu esa kichik korxonalarga davlat tenderlarida yirik kompaniyalar bilan raqobatlashish imkonini beradi. Demak, elektron hukumatning foydasi ochiq va shaffof bozor va kuchli iqtisodiyotni yaratish bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda kompaniyalar va odamlar o'tmishdagiga qaraganda tezroq va kunning istalgan vaqtida ma'lumot olishlari mumkin. Xulosa qilib aytganda, fuqarolarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini oshirish, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligi elektron hukumatning kutilayotgan afzalliklari hisoblanadi.

Elektron hukumatning kamchiliklari. Elektron hukumatning kamchiliklari ham bor. Elektron hukumatning asosiy kamchiliklari - barcha fuqarolar uchun umumiy Internet tarmog'iga kirishning yo'qligi, davlat organlari tomonidan Internetda e'lon qilingan ma'lumotlarning ishonchiligi, shuningdek, davlat va uning organlarining jamoatchilik fikriga potentsial ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari. Yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklardan tashqari, elektron hukumatning boshqa kamchiliklari ham mavjud: Yuqori kuzatuv va monitoringning mavjudligi. Elektron

hukumatni joriy qilish, saqlash va optimallashtirish arzon emas va ko'p pul sarflashni talab qiladi. Hamma uchun mavjud emas: elektron hukumatdan hamma ham, uzoq mintaqalarda yashovchi yoki savodxonligi va daromadi kambag'allik chegarasida bo'lganlarning foydalanishida qiyinchiliklarga duch kelishi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E-Government – Assesment of current research and some proposals for future directions. Ulrica Lofstedt;
2. What is e-government. R.Silcock;
3. The E-Government handbook for developing countries. A Project of InfoDev and The Center for Democracy & Technology;
4. Implementation of e-Government: Advantages and Challenges. M.Alsheri, S.Drew;
5. O'zbekiston Respublikasi Elektron hukumat to'g'risidagi qonun.